
“Soyip Ali tekstil” MCHJda ishlab chiqarilayotgan trikotaj va poyabzal mahsulotlari xorijga eksport qilinmoqda

Hududlarda ishga tushirilayotgan istiqbolli loyihalar minglab aholining ijtimoiy holatini yaxshilabgina qolmasdan, mamlakat iqtisodiyoti yuksalishida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Qo’shtepa tumanida faoliyat olib borayotgan “Soyip Ali tekstil” MCHJda trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilib, buyurtma asosida xorijga eksport qilinmoqda. Buning uchun 40 nafardan ziyod xotin-qizlarning samarali mehnati tashkil etilgan.

E’tiborlisi shundaki, “Soyip Ali tekstil” MCHJ tomonidan poyabzalchilik yo’nalishida qo’shimcha yangi loyiha ham ishga tushirilib, hududdagi 30 nafar xotin-qizlarning bandligi ta’minlandi. Korxonada ishlab chiqarilayotgan poyabzal mahsulotlarini esa qo’shni Afg'oniston Respublikasiga eksport qilishni yo’lga qo'yish rejalashtirilgan.



2024-11-26 09:22:10